

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SINGARMONIZMNING IFODALANISHI

Sofiyaxon USMONOVA

*Qo'qon davlat pedagogika instituti,
O'zbek tili kafedrası dotsenti
e-mail: sofiya.usmonova.72@gmail.com*

Dilhayot SOTIBOLDIYEV

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi
dilhayotsotiboldiyev5@gmail.com*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806449>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turkiy (o'zbek) tilidagi singarmonizm hodisasi, uning turli til taraqqiyoti davrlaridagi ko'rinishlari, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida singarmonizm mavjudligi borasida olimlarning qarashlari, misollar hamda olimlarning tadqiqotlari orqali berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *A.Navoiy, A.Rustamov, X.Doniyorov, M.Qarshiboyev, S.Boltaboyev, singarmonizm, tanglay singarmonizmi, labial singarmonizm, transkripsiya, unli tovushlar, undosh tovushlar, alifbo.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается явление сингармонизма в тюркском (узбекском) языке, его проявления в разные периоды развития языка, в частности, взгляды ученых на существование сингармонизма в произведениях Алишера Навои на примерах и исследованиях учёные.*

Ключевые слова: *А. Навои, А. Рустамов, Х. Дониёров, М. Каршибоев, С. Болтабоев, сингармонизм, палатальный сингармонизм, губной сингармонизм, транскрипция, гласные, согласные, алфавит.*

Abstract: *This article presents the phenomenon of synharmonism in the Turkic (Uzbek) language, its manifestations in different periods of language development, in particular, the views of scholars on the existence of synharmonism in the works of Alisher Navoi, examples and research of scholars.*

Keywords: *A. Navoiy, A. Rustamov, Kh. Doniyorov, M. Karshiboyev, S. Boltaboyev, synharmonism, palatal synharmonism, labial synharmonism, transcription, vowels, consonants, alphabet.*

Qadimgi turk tillarining yozma obidalarida unli hamda undosh tovushlar dialektikasi bir butun strukturadan iborat. Qalin til orqa aytiluvchi unli tovushlar mustaqil bir so'zning tarkibida qalin talaffuzli undoshlar bilan kelishi dialektik qonun holatiga ega. Ingichka til oldi qator unli tovushlar ingichka aytiluvchi til oldi qator undosh tovushlar bilan dialektik qonun asosida bir so'z tarkibida kelishi shart. Qadimgi turk yozma yodgorliklarida qalin va ingichka talaffuzli unli hamda undosh tovushlar bir-biriga nisbatan ziddiyat qonuni asosida rivojlangan. Shuningdek, qalin orqa qator unli, undosh tovushlar ingichka til oldi qator unli va undoshlar o'zaro

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

inkorni inkor qonuni asosida rivojlangan. Qalin talaffuzli fonemalar o'z qatorlariga ko'ra yoki holatda yangi so'zlar hosil qilib, sifat o'zgarishi yuz beradi. Xuddi shuningdek, ingichka qator fonemalar ham o'z navbatida tovushlar yig'indisi miqdor o'zgarishi orqali yangi so'z hosilasi bilan sifat o'zgarishiga uchraydi. [4.39]

Turkiy tillarida diaxron hamda sinxron hodotda unli va undosh tovushlar boshqa tillar sistemasiga nisbatan o'zgacha xususiyatga ega. Turk tillariga xos chuqur orqa qator jarangsiz **q** jarangli **g'** va **x** undoshlari bir so'zning tarkibida ingichka qator unlilar bilan yondosh kelmaydi. Bunday xususiyat boshqa qalin aytiluvchi undoshlarda ham mavjud. Shuningdek, sayoz til orqa yoki jarangsiz **k** hamda jarangli **g** undoshlari qalin orqa qator unli hamda undosh tovushlar bilan bir so'zning tarkibida kelishi mumkin emas.

Mumtoz adabiy asarlar asosan arab yozuvida ko'chirilgani bois old qator va orqa qator unlilar uchun alohida belgiga ega emas. Ma'lumki, mumtoz adiblarimizning tilida unli tovushlarning nechta ekani, tovushlar uyg'unligi bor-yo'qligi munozaralari mavjud.

Arab harfli mumtoz asarlarda ham so'zdagi unlilarning old yoki orqa qatorligini imlo nuqtai nazaridan payqash imkonini uch undosh beradi. ق va غ harflari orqa qator unli ishtirok etgan so'zlarda, گ harfi esa (η tovushi uchun qo'llanilgan holatlardan tashqari) ingichka o'zakli so'zlarda qo'llaniladi. Bu masalani Saidbek Boltaboyev quyidagicha izohlagan. "Misol uchun Navoiy asarlarini o'rnak sifatida olaylik. Shunisi e'tiborliki, asarlarning Navoiyning o'zi tirikligida ko'chirilgan nusxalarida, xususan, To'pqopi saroyida saqlanayotgan Navoiy kulliyotida bu qoida deyarli buzilmagan, temir qonundek ishlagan. Ingichka o'zakli so'zlarga faqat ingichka undosh (yoki chuqur til orqa bo'lmagan undosh) harf, ya'ni ك bilan yozilgan qo'shimchalar kelgan". [2.190]

Navoiy asarlari tilida old qator va orqa qator unlilarning mavjudligini inkor etib bo'lmaydi, bu haqda shoirning o'zi "Muhokamatul-lug'atayn"ning bir necha o'rnida aytib o'tadi. Misol uchun, birgina ج harfi ham orqa qator o va u unlilari, ham old qator ö va ü unlilarini ifoda eta olishini yozadi: "Va türkî alfāzda bu ma'ruf (va) majhul harakat tört nav' tapîlur, ham vāvîsî va ham yāyîsî. Vāvîsî andaq-ki, وot-ki, "şay'-i muhriq"dur va öt – "murur" ma'nāsî bilā va ut – "muqammirğa burd jihatîdîn amr" va üt-ki, barîdîn ariq harakatdur, "kallanî otqa tutup tükin arîtur" ma'nādatur. Yana bir misāl: تورtor-ki, "dām"dur, yana tur-ki, andîn daqiqraqdur-ki, "quş olturur yığaç"dur va tör-ki, andîn daqiqradur, "üyniñ töri"dür va tür-ki, barçadîn ariqdur "torluğnî yā eşikni türmäk üy"dür..." Ma'nosi: "Turkiy tilda bu ma'ruf va majhul belgining ham vāvîsidan, ham yāyîsidan to'rt xili topiladi. Vāvîsi shundayki, وot – "yondiruvchi narsa"dir va öt – "o'tish" ma'nosidadir va ut – "qimorvozga yutish

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jihatidan buyruq"dir va üt-ki, hammasidan ingichka harakat bilan aytiladi, "kallani o'tga tutib tukini aritish" ma'nosidadir. Yana bir misol: تور "ovchilar to'ri"dir, yana undan ingichkaroq aytiladigan tur "qush o'tiradigan yog'och"dir, undan nozikroq bo'lgan tör "uyning to'ri"dir. Va yuqoridagilarning barchasidan nozik aytiladigan tür "to'rlug'ni va eshikni turmak uy"dir..." [5.67]

Ayrim baytlarini S.Boltaboyev quyidagicha transkripsiyada bergan va masalaga oydinlik kiritgan:

1) Qaşığa qılğaç sujud, öltürdi ul kâfir meni,
Hech musulmân yâri, yâ rab, nâ-musulmân bolmasun.

2) Xanjariñ jänimg'a yetti kökrägingä sançilib,
Näväkiñ yanımğa olturdi iyâdatğa kelib.

"Ayirmoq" ma'nosidagi böl- fe'lini, bol fe'li bilan chalkashtirib yuborish ham quyidagi baytda ma'noni nihoyatda o'zgartirib yuborad:

Bo'lub qursi mahi tobonni ikki,
Kishi andoqki bo'lgay nonni ikki.

Bayt to'g'ri shaklda shunday transkripsiya qilinishi kerak:

Bölüp qurs-i mahi tãbänni ikki,
Kişi andaqqi bölgäy nänni ikki. [2.188]

Yoki shakarning antonimi ximiyaviy modda osh tuzining baytlarda ishlatilgan tuz bilan Navoiy tilida tez-tez uchraydigan "to'g'ri" ma'nosidagi tüz so'zini o'zaro qorishtirib yuborish ham matn ma'nosini tubdan o'zgartirib yuboradi:

1) Zaxmim achitqan dam-badam ul la'li shakkarxand erur,
Vah-vah, tuz ermish ulki, men qildim gumonkim qand erur.

2) Qading tuz, naxli gulzori Eram tuz.

Ki, tuz ashyog'a bo'lmish soya ham tuz.

Birinchi baytdagi tuz yo'g'on o'zakli bo'lib, osh tuzi degani. Ikkinchi baytdagi tüzlar esa ingichka o'zakli bo'lib, "to'g'ri, rost" ma'nosiga keladi. Transkripsiya ham shu hisobga olingan holda qilinishi kerak:

1) Zaxmim açitqan dam-badam ul la'li şakkâr-xand erür,
Vah-vah, tuz ermiş ulki, men qıldım gumānkim qand erür.

2) Qadiñ tüz, naxli gulzâri Eräm tüz.

Ki, tüz aşyâğa bolmiş sâya ham tüz.

Navoiy asarlar matni tabdilidagi fonetik xususiyatlar va leksikasidagi ba'zi masalalar Alisher Navoiyning ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish qanchalik zarur va ahamiyatli bo'lsa, uning matni tabdilining fonetik taraqqiyotini matnshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish joiz. Chunki "Navoiy asarlarida singarmonizm (tovushlar uyg'unligi) "temir qonun" sifatida amal qilgan. Bu narsa

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

eski o'zbek adabiy tilining tovushlar tizimini anglashga ham imkon beradi. Masalan, muallif keltirgan misollarda "yo'g'on" o'zak-negizli so'zlarga masdar ko'rsatkichining -maq varianti qo'shiladi: quruqshamaq, aldamaq, qistamaq, yalinmaq singari; "ingichka" talaffuzli so'zlarga esa -māk varianti qo'shiladi: igirmāk, indāmāk, sürkänmāk, örtänmāk kabi. Ko'rinadiki, Navoiy asarlari tilida, qolaversa, eski o'zbek adabiy tilida orqa qator, "yo'g'on" [a] bilan old qator, "ingichka" [ä] ning har ikkovi mustaqil fonemalar sifatida amal qilgan. [1.27]

A.Rustamov Navoiy tilidagi unlilar sonini belgilash haqidagi mavjud fikrlari hamda Alisher Navoiy asarlari tili unlilar tizimi xususiyatlarini tahlil qilib, ularda to'qqizta (i, i:, ə, a, e, o, ɵ, u, ʏ) unli tovush mavjud degan xulosani bergan. X.Doniyorov Alisher Navoiy asarlari tili unlilar tizimi i, ы, e, o', u, o, ɵ, ə, a lardan iborat ekanligini va to'liq singarmonizm hodisasiga amal qilinganini dalillar asosida isbotlab bergan. [7] Alisher Navoiy asarlari tili unlilar tizimi to'qqizta unli tovushdan iborat ekanligini va to'liq singarmonizm hodisasiga amal qilishi A.Rustamov, X.Doniyorov va boshqa o'zbek olimlari tomonidan isbotlab berilgan.

Hech qanday alifbo tizimi biror tilning barcha talaffuz xususiyatini qamrab oluvchi fonetik alifbo bo'la olmasligi fanda qabul qilingan haqiqat. Chunki til jonli hodisa bo'lsa, yozuv esa tilning ma'lum vaqtda olingan surati, rasmidir. Bu surat tilning imlo normalari tuzilgan eski holatini ko'rsatib turaveradi. Tilning o'zi esa o'sha holatda qolmaydi, turli sabablar bilan o'zgarib boradi. Turkiy xalqlar ilk bor qo'llangan ko'kturk yozuvi unli harflar bilan emas, asosan undosh harflar bilan tovushlar uyg'unligini imloda aks ettirganidek arab alifbosida ham ba'zi undosh harflar orqali (ق, غ, ك) tilda singarmonizm mavjudligi ko'rsatilgan. Yurtimizda mutaxassis bo'lmaganlar ham tushinishi, keng o'quvchilarga yetib borishi maqsadida Navoiy asarlari ko'pincha transkripsiya qilinmay, hozirgi alifbomizdan joy olgan harflarga tabdil qilinadi. Bu esa Navoiy tilining matnda fonetik jihatdan to'liq aks etmasligiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda davr tili, fonetikasi, leksikasi, semantikasidan tashqari tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik kabi tadqiqotlarda bir muncha to'siqlar yaratadi. Mumtoz adabiy asarlarda fonetik transkripsiya hech bo'lmaganda ilmiy nashrlarda shu qadar kerakligi, kontekst yaxshi tushinilmaganda bir joydan qo'nim topib oltirganni yo'q qilib, oltirib qo'yish yoki olib yo'q bo'lganni bor qilib, oltiribdi deb yuborish; uyning toridagini ovchining toriga ilintirib, to'g'ri-yu rost bo'lgan tuzga ko'rnamaklik qilib, osh tuziga aylantirib qo'yish hech gap emas. Tadqiqotlarda toki Navoiy yoki boshqa mumtoz adiblarning asarlarini hozirgi alifbomizga tabdil qilish bilan cheklanib qolar ekanmiz, bir tomondan o'zbek tilshunosligi, matnshunosligining xalqarolashuvini to'sib qo'yamiz. Transkripsiya esa

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

o'zbek tilini yaxshi bilmagan mutaxassis tomonidan ham o'qib tushinishi, tadqiqotchilarning ishlarida undan foydalanilishini ta'minlaydi.

Murtazo Qarshiboyev "Tilim-tilim tilingan tilim" maqolasida "Holbuki, tilimizda ingichka unlilari bor bo'lgan o'zakka shunga mos qo'shimchalar qo'shish holatlari ham ko'p. Masalan, Abdulla Oripovning "O'zbekiston - Vatanim manim" idagi "manim" so'zini eslang. [6.42] Yoki "Navoiy bobomiz ishlatgan "yibardim", "yudim", "dedimki", "dediki", "istangiz", "kelmadi" kabi yumshoq o'zak, negiz va qo'shimchalarni o'zida mujassam etgan so'zlarni oling. Buyuk shoirimizning mashhur "Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas", "Istaganlar, bizni sahroyi baloda istangiz" kabi satrlarida "istamak" so'zidagi unlilar ingichka talaffuz etilgani uchun "-gon" yoki "-g'on" emas, "-gan" qo'shimchasini olgan.

Singarmonizm bilan bog'liq til oldilik, til orqalik yoki ingichkalik, yo'g'onlik masalasi alifbo bilan bog'liqdir. [3.110] Qardosh xalqlar alifbosida til oldi, til orqa unlilar o'z aksini topgan, lekin o'zbek alifbosining amaldagi har ikki alifbosida bu masala muammoli holda qolmoqda. Singarmonizm masalasiga o'z davrida jadidlar ham astoydil kurashgan, bir asr o'tgandan so'ng ham bu masala kun tartibidan tushgani yo'q. Biz turkiy xalqmiz bizning alifbomiz va tilimizdagi o'ziga xoslikdan siyosat va qaysidir millat manfaati uchun foydalanish xiyonat sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Abdulxayr Manzar. Asliyat va tabdil muammolari. Navoiy asliyati tabdillari (o'quv qo'llanma). - T: "Adast Poligraf" nashriyoti, 2023- y. B: 27.
2. Boltabayev Saidbek. O'zbek matnshunosligida transkripsiya masalasi. "Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Namangan, 2021. 190-b.
3. Jo'ra Xudoyberdiyev. O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi. Monografiya. "Bookmany print" Toshkent - 2024. 110- b.
4. Mahmudov Qozoqboy. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. Toshkent, 2006. 39-b.
5. Sodiqov Q. "Muhokamatu-l-lug'atayn"ni o'qib o'rganish. -Toshkent: 2011. 34, 67-b.
6. Муртазо Қаршибой. Тилим-тилим тилинган тилим. Тафаккур. Ижтимоий-фалсафий, маънавий-маърифий журнал. 3/2023. 42- b.
7. Алибек Рустамов. XV аср ўзбек адабий тилининг вокализми.// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1962, 6- сон, 66-68- бетлар. Doniyorov X. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. - Toshkent: 1972.